

NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHIDAGI TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI

Abdulazizova Irodaxon Erkinboy qizi

*Namangan davlat pedagogika institut Pedagogika fakulteti 1-bosqich
magistranti, Elektron pochta: abdulazizovairoda784@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21155103>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llash masalalari tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda, interfaol metodlar, multimedia vositalari, sun’iy intellekt texnologiyalari va masofaviy ta’lim platformalarining nutq faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda ko‘rsatib berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: nutq malakalari, kommunikativ kompetensiyalar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodikalar, raqamli ta’lim jarayoni, multimedia, innovatsion yondashuv jarayoni, sun’iy intellekt.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы использования современных методов и технологий в научных исследованиях формирования и развития речевых навыков. Подчеркивается важность развития коммуникативных компетенций в системе образования, развития устной и письменной речи учащихся, инновационных педагогических подходов и цифровых технологий. Одновременно научно доказывается важность интерактивных методов, мультимедийных инструментов, технологий искусственного интеллекта и платформ дистанционного обучения в развитии речевой деятельности.

Ключевые слова: речевые навыки, коммуникативные компетенции, педагогические технологии, интерактивные методики, цифровой образовательный процесс, мультимедиа, инновационный подход к процессу, искусственный интеллект.

Abstract: This article analyzes the issues of using modern methods and technologies in scientific research on the formation and development of speech skills. The importance of developing communicative competencies in the education system, developing students' oral and written speech, innovative pedagogical approaches and digital technologies is highlighted. At the same time, the importance of interactive methods, multimedia tools, artificial intelligence technologies and distance learning platforms in the development of speech activity is scientifically demonstrated.

Keywords: speech skills, communicative competencies, pedagogical technologies, interactive methodologies, digital educational process, multimedia, innovative approach process, artificial intelligence.

Kirish. Bugungi zamonaviy va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda insonning nutqiy muloqoti muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki nutq malakasi shaxsning fikrini ravon, tushinarli, mantiqiy va ta’sirchan ifoda etish qobiliyatini belgilab beradi. Ayniqsa, ta’lim tizimida o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy pedagogika fanlarida nutq malakalari, muloqot jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar jadal tarzda olib borilmoqda.

An’anaviy ta’lim metodlari, jarayonlari ko’proq nazariy bilim berishga yo’naltirilgan hisoblanadi, zamonaviy metodlar esa o’quvchini faol tarzda ta’lim jarayoniga jalb etadi. Bu esa nutq faoliyatining barcha jarayonlari – tinglab tushunish, gapirish, o’qish va yozish ko’nikmalarining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Nutq malakalari va muloqot jarayonlarini rivojlantirishning nazariy asoslari mavjud. Nutq malakasi va muloqot til birliklaridan to’g’ri va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatidir. Pedagogika fanlarida nutq faoliyati quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi: fonetik malaka, leksik malaka, grammatik malaka, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya.

Olimlarning fikricha, nutq malakasi va muloqot jarayonlari faqat grammatik qoidalarni bilish bilan emas, balki kommunikativ vaziyatda ulardan samarali foydalanish holati hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda kommunikativ yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qaralmoqda. Zamonaviy metodlarning ahamiyati yoritib o’tamiz. Nutq malakalarini va muloqot jarayonlarini rivojlantirish bo’yicha tadqiqotlarda quyidagi zamonaviy metodlardan keng qo’llanilmoqda, ya’ni ular quyidagilardan iborat.

Kommunikativ metod: Kommunikativ metod bu o’quvchini real muloqot jarayoniga tayyorlash hisoblanadi. Ushbu metod orqali: dialogik va monologik nutq rivojlanib boradi, mustaqil fikrlash shakllanib boradi, nutqiy faollik ortadi, erkin muloqot muhiti yaratiladi va amaliy faoliyatda qo’llaniladi.

Mazkur metod xorijiy tillarini o’qitishda judayam samarali metodik usullardan biri hisoblanadi.

Interfaol metodlar: Interfaol metodlar o’quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Ular quyidagilarni o’z ichiga oladi:

“Aqliy hujum” metodi. Bu metod orqali o’quvchilar o’zlarining erkin fikrlarini bildiradilar, yangi g’oyalar haqida ma’lumot beradilar va bu jarayonlar ularning nutqiy faolligi oshiradilar.

“Bahs-munozara” metodi. Bahs jarayonida o’quvchilar o’z fikrini asoslash, dalillash va himoya qilishni o’rganadi.

“Klaster” metodi. Mavzu yuzasidan tushunchalarni tizimlashtirish va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. “Rol o’ynash” metodi. O’quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy nutq ko’nikmalarini egallaydilar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o’rni. Zamonaviy tadqiqotlarda AKT vositalari nutq malakasini va muloqot jarayonlarini rivojlantirishning samarali omili sifatida baholanmoqda.

Multimedia texnologiyalari-talaffuzni yaxshilaydi. Audio va video materiallar:tinglab tushunish malakasini rivojlantiradi; nutqiy vaziyatlarni tabiiylashtiradi.

Multimedia vositalari orqali o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ko‘rish, eshitish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Elektron ta’lim platformalari: Masofaviy ta’lim platformalari, mustaqil ta’limni rivojlantiradi, individual o‘rganish imkonini yaratadi, nutqiy mashqlarni avtomatlashtiradi.

Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Zoom kabi platformalar nutq faoliyatini rivojlantirishda faol qo‘llanmoqda.

Mobil ilovalar yordamida:lug‘at boyligi oshadi; talaffuz ustida ishlanadi; interaktiv mashqlar bajariladi.

Duolingo, Memrise va Quizlet kabi ilovalar nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda keng foydalanilmoqda.

Sun‘iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari. So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt asosidagi texnologiyalar ta’lim tizimiga jadal tarzda kirib kelmoqda. Nutq malakalari va muloqot jarayonlarini rivojlantirishda sun‘iy intellekt texnologiyalarining quyidagi afzalliklari mavjuddir; avtomatik nutq tahlili; talaffuzdagi xatolarni aniqlash; individual tavsiyalar berish; virtual suhbatdosh yaratish; ta’lim muhitini tashkil etish.

Chatbotlar va ovozli yordamchilar o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Innovatsion yondashuvlar, bular quyidagilar: Nutq malakasi va muloqot jarayonlarini shakllantirish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda quyidagi innovatsion yondashuvlar qo‘llanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Bu yondashuv bilimdan ko‘ra amaliy jarayonlarga urg‘u beradi. O‘quvchi nutqiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak hisoblanadi.

Differensial yondashuv bu-Har bir o‘quvchining individual qobiliyatidan kelib chiqqan holda topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Integrativ yondashuv. Nutq malakalari va muloqot jarayonlari boshqa fanlar bilan integratsiya asosida rivojlantiriladi. Zamonaviy metodlarning samaradorligi quyidagilardan iborat. Interfaol metodlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi; AKT vositalari motivatsiyani kuchaytiradi; multimedia texnologiyalari eslab qolish darajasini yaxshilaydi; sun‘iy intellekt individual ta’lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini: qiziqarli; samarali; interaktiv; moslashuvchan holga keltiradi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash jarayonida ayrim muammolar ham kuzatilib kelinmoqda, texnik vositalarning yetishmasligi; internet sifati pastligi; pedagoglarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi; metodik ta’minotning cheklanganligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagichs ishlar qilinishi mumkin: pedagoglarning malakasini oshirish; raqamli resurslar yaratish; zamonaviy laboratoriyalar jarayonlarini tashkil etish;

Innovatsion metodikalardan foydalanish va ularni yangi turlarini ishlab chiqarish va amaliyotga tatbiq etish, qo'llanmalar ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Xulosa. Nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va sun'iy intellekt asosidagi tizimlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Kelajakda raqamli pedagogika va sun'iy intellekt texnologiyalarining yanada takomillashuvi nutq malakalarini rivojlantirish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bois pedagogik tadqiqotlarda innovatsion metodlarni keng qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2020.
2. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. – Toshkent, 2019.
3. Passov E.I. Kommunikativ metodika asoslari. – Moskva, 2018.
4. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.
4. Sadirdinovna, V. M., & Orifjanovna, O. D. (2025, December). AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA NUTQ VA MULOQOT KO'NIKMAALARINI SHAKLLANTIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK TIZIMI. In *UNIVERSAL INSIGHTS CONFERENCE ON SCIENCE AND SOCIETY* (Vol. 1, No. 1, pp. 198-206).
5. BOTIROVA, S. (2025). NUTQ MADANIYATI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING UYG'UNLIGI: TARIX FANI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. «ACTA NUUz», 1(1.2), 82-84.
6. Botirova, S. Developing Speech Skills Of School Students In Teaching History Of Uzbekistan. *European Scholar Journal*, 4(12), 62-64.
7. Azamovna, R. G., & Munira, V. (2022). Case Study and TECHNOLOGY of Using Non-standard Tests in the Development of Educational and Creative Activities. *JournalNX*, 8(12), 277-282.
8. Turg'unpo'latova, D., & Voxobova, M. (2025). Inklyuziv ta'limda logopedik yordamning o'rni. *Science and Education*, 6(5), 350-355.
9. Munira, V. (2025). Alaliya nutq nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan turli metodlar. *Science and Education*, 6(2), 283-288.